

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI  
FTIZIATRIYA VA PULMANOLOGIYA KAFEDRASI

**"TASDIQLAYMAN"**  
Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Buxoro davlat tibbiyot instituti  
o'quv ishlari bo'yicha prorektori,



G.J. Jarilkasimova  
2025 yil

**FTIZIATRIYA**  
**MODUL O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 900 000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot  
**Ta'lim sohasi:** 910000 - Sog'liqni saqlash  
**Ta'lim yo'nalishlari:** 60910200 - Davolash ishi

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglardan birinchi 300 talik ro'yxatda kiruvchi **London School of Hygiene & Tropical Medicine (# =21 QS World University Rankings)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

<https://www.topuniversities.com/universities/london-school-hygiene-tropical-medicine>

**Buxoro – 2025 yil**

Ushbu modul dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim ,fan va innovatsiyalar vazirining 2023 -yil "9"iyun 259-son buyrug'i asosidagi ilovalari asosida kafedra professor o'qituvchilar tomonidan tayyorlandi

**Tuzuvchi :**

**Jumayev M.F** - BDTI Ftiziatriya va pulmanologiya kafedrası dotsenti ,PhD

**Taqrizchilar :**

**Muazzamov B.B** – BDTI Ftiziatriya va pulmanologiya kafedrası dotsenti.

Kafedrada o'tiladigan fanlarning o'quv-uslubiy hujjatlari kafedra yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi .

**Bayonnoma № 2025 yil**

**Kafedra mudiri :**



**Jumayev M.F**

Barcha yo'nalishlarda o'tiladigan fanlarning o'quv- uslubiy hujjatlari institut Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

**Bayonnoma № 1 " " " " 2025 yil**

**Ofis registrator boshqarma boshlig'i :**



**O.B.Raxmatov**

**Ta'lim jarayonlarni muvofiqlashtirish sektori bosh mutaxassisi :**



**Adilova R.H**

Fan/modul kodi		O'quv yili 2026-2027	Semestr 7-8		ECTS - Kreditlar 4,0
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus			Haftadagi dars soatlari
1.	Fanning nomi	Ma'ruza amaliyot va mashg'ulotlari soati		Klinik Mustaqil ta'lim soati	Jami yuklama (soat)
	Ftiziatriya	7-8 semestr	16	44	0/60
		<b>Jami :</b>	<b>16</b>	<b>44</b>	<b>0/120</b>
					120

### 1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

Ushbu modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti davolash ishi hamda professional ta'lim ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadbqiq etib, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib va orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda mustaqil ravishda bemorlarni tashxislash va qabul qilishga zamin yaratib beradi. Ushbu dasturda "Ftiziatriya" modulining mazmuni, predmeti va metodi hamda mohiyati aks ettirilgan. Ftiziatriya moduli bo'yicha dastur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida talabalarga vrachlik mutahassisligini yaxshi o'zlashtirish uchun muhim bo'lgan mustaqil o'quv tarkibi va talabalarning umumiy amaliy shifokori (UASh) mutahassislarini tayyorlash bo'yicha jarayon mobaynida mustaqil ishi, shuningdek ftiziatriya o'quv jarayonini axborot-uslubiy ta'minlovlaridan iborat. Modul dastur umumiy amaliyot shifokorini tayyorlash dasturi asosida tuzilgan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining davolash va professional ta'lim yo'nalishlari talabalariga ftiziatriya modulidan ta'lim berish uchun mo'ljallangan. Mazkur modul o'quv rejadagi tibbiy biologiya va genetika, biofizika, tibbiy va biologik kimyo, odam anatomiyasi, fiziologiya, gistologiya vaimmunologiya, mikrobiologiya va parazitologiya, ichki kasalliklar, allergologiya, klinik immunologiya, yuqumli kasalliklari, klinik farmakologiya, jarroxlik kasalliklari va shoshilinch tez tibbiy yordam, neyroxirurgiya modullaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.

### 2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi – yuqori malakali mutahassislar – umumiy amaliyot shifokorlari (terapevtlar, jarroxlar, akusher-ginekologlar)ni tayyorlash hisoblanib, ftiziatriya moduli uchun kerakli xajmdagi bilim, mahorat va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak: tuberkulyozni tashhislash va qiyosiy tashhislash, erta aniqlash, profilaktikasi va davolash, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, tuberkulyoz bo'yicha asosiy epidemiologik ko'rsatkichlarni bilish.

## **2. Modulning vazifalari:**

- tuberkulyoz kasalligini etiologiya, epidemiologiya, patogenez, klinik tasnifi, kechishi, asoratlari va davolash tamoyillari bo'yicha bilimlarini shakllantirish.
- tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashishning turli yoshdagi aholi orasida har yili dispanserizatsiyani tashkil etishda bilimlarni shakllantirish.
- tuberkulyozni maxsus va sanitar profilaktika usullarini o'rgatish va tuberkulyoz infeksiyasi manbaasida sog'lomlashtirish ishlarini tashkillashtirish;
- tuberkulyoz bo'yicha asosiy epidemiologik ko'rsatkichlarni hisobga olish, kasallikni barvaqt aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish, tuberkulyoz klinikalarida infeksiyon nazorat, ular ijrosini nazorat etish hamda sanitar-veterinariya nazoratini tashkil etish;
- tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashish tadbirlari va umumiy amaliyot shifokorlar faoliyatini nazorat etish hamda tuberkulyozga qarshi dispanserlar olib borishi lozim bo'lgan tadbirlar bo'yicha bilimlarini shakllantirish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni;
- Jaxon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyasiga asosan instruktiv hujjatlariga muvofiq tuberkulyozni oldini olishda, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazishda bilimlarni shakllantirish.

### **2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: 7-semestr yakunida:**

#### **Talaba:**

- tuberkulyoz bo'yicha epidemiologik vaziyatni, o'pka va o'pkadan tashqari joylashgan tuberkulyozning etiologiyasi, patogenez, klinik shakllarini, MDR-TB, OIV-TB muammolarini.
- o'pka va o'pkadan tashqari joylashgan tuberkulyozning asosiy sindromlari asosida taktika, tashhishlash, qiyosiy tashhishlash, tuberkulyozni erta aniqlash prinsiplari, oldini olish usullari, BJSST ko'rsatmalarigako'ra infeksiyani nazorat qilishni tassavurga ega bo'lishi;
- bemorlar so'rab-surishtirishni, ko'rikni, klinik va biokimyoviy laboratoriya natijalarini solishtirishni, MBTga bakteriologik tekshiruvni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- 2 TB bilan Mantu sinamasini o'tkazish;
- BSJ vaktsinatsiya va revaktsinatsiya usullarini qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.

#### **8-semestr yakunida:**

- tuberkulyozga shubha tug'ilgan bemorni tekshirish rejasini tuza olishi tuberkulyozga klinik skrining o'tkazishni, bemorlar turi va davolash kategoriyasini aniqlashni, davolash rejasini tuzishni, o'pka va o'pkadan tashqari tuberkulyozning oqibatlarini aniqlashni.
- tuberkulyoz infeksiyasi o'chog'ini tekshirish, epidemiyaga qarshi rejalar tuzish va aholinini axborot bilan ta'minlash hamda bu infeksiyaga bo'lgan munosabatini o'zgartirish haqida tassavurga ega bo'lishi;
- tuberkulyoz profilaktikasi usullarini (maxsus, ximioprofilaktika, sanitar profilaktika) bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ko'krak qafasi rentgenogrammasini baholash;
- tuberkulyoz infeksiyasi o'chog'ini malakalariga ega bo'lishi kerak.

## **3. Asosiy qism**

### **3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

#### **7-semestr:**

<https://www.lshtm.ac.uk/media/70856>

1-mavzu. Tuberkulyoz haqida ta'limotning rivojlanish tarixi. Tuberkulyoz etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenez va immuniteti. Tuberkulyozni o'rganishda asosiy rivojlanish bosqichlari. Tuberkulyoz qo'zg'atuvchisi: mikobakteriya turlari. Mikobakteriyaning dorilarga turg'un, multirezistent turlarini epidemiologik va klinik ahamiyati. Turli mamlakatlarda, Markaziy Osiyo Davlatlari va O'zbekistonda tuberkulyoz bo'yicha epidemiologik holat. Asosiy

epidemiologik ko'rsatkichlar. Tuberkulyoz yallig'lanishidagi morfologik reaksiya. Tuberkulyoz granulyomalarining tuzilishi. Tuberkulyozning turli klinik shakllari va asoratining morfologiyasi. Tuberkulyozga qarshi tabiiy turg'unlik va tuberkulyozga qarshi immuninet, ularning mexanizmi, a'zo va tizimlarda tuberkulyozga qarshi immunitet. Tuberkulyoz patogenezida immunitet fenomenlarining ahamiyati.

2. Tuberkulyozni aniqlash usullari va umumiy tamoyillari. Tuberkulyoz bilan xastalangan bemorni tekshirish – muloqotning ahamiyati, bemorning yashash va mehnat sharoiti. Kasallik simptomlari, bemorning shikoyatlari. Nafas a'zolari tuberkulyozi bilan xastalangan bemorlarni ko'zdan kechirish, perkussiya va auskultatsiyani ahamiyati. Laborator tekshirish. SMBni aniqlashda bakterioskopik, bakteriologik va biologik usullar. Nafas a'zolari tuberkulyozining rentgenologik tashhisi. Rentgenologik tekshirish usullari. Tuberkulyozda SRYuSni aniqlash usullari, tuberkulin turlari, tuberkulin sinamalarini o'tkazishda turli usullar. 2TB bilan utkaziladigan Mantu tuberkulin sinamasi. Bajarish texnikasi, natijalar interpretatsiyasi va aholi orasida tuberkulyozdan zaharlanishni o'rganish. Tuberkulyozda nafas olish va qon aylanishi funksiyalarini o'rganish. O'pkaning nafas funksiyasi va tuberkulyoz bemorlarida uni o'rganish usullari (O'TS, NMX, O'MV, nafas pauzasi va boshqalar). O'pka tuberkulyozida yurak-qon tomir tizimi funksiyasini tekshirish usullari (EKG, BKG, VKG) va ularni klinik baholash.

3-mavzu. Tuberkulyozning klinik tasnifi. Birlamchi tuberkulyoz. Tarqoq tuberkulyoz. Tuberkulyoz tasnifining tuzilish tamoili. O'zRda qabul qilingan klinik tasnif, MKB10, JSST tavsiyasiga asosan tashhisi asoslash. O'zbekistonda qabul qilingan tuberkulyoz tasnifiga muvofiq klinik tashhis qo'yish. Birlamchi tuberkulyozning klinik shakllari: bolalar va o'smirlarda tuberkulyozdan zaxarlanish, ko'krak ichi limfa tugunlari tuberkulyozi, birlamchi tuberkulyoz kompleksi. Klinik simptomotologiya va tashhislash usullari, kechishi, asorati va oqibati. Taqqoslama tashhis usullari.

4. O'pkaning tarqoq tuberkulyozi, o'ziga xos klinik kechishi. O'tkir, o'tkir osti va surunkali o'pkaning tarqoq tuberkulyozi. Tashhislash, taqqoslama tashhislash, klinikasi, asorati, oqibati va davolash tamoyillari.

### 8-semestr:

<https://www.lshtm.ac.uk/media/70856>

5- mavzu. Ikkilamchi tuberkulyoz. O'pkaning o'choqli va yallig'langan tuberkulyozi va o'pka tuberkulemasi. O'pkaning o'choqli tuberkulyozi. Yumshoq va fibroz o'choqlar, ularning ahamiyati. O'pkaning yallig'langan tuberkulyozi. Infiltrat turlari. Kazeoz zotiljam, klinikasi, o'ziga xos kechishi, tashxislash, taktika, oqibati va asoratlari. O'pka tuberkulomasi. Klinikasi, tashxislash, o'ziga xos kechishi, asorati, oqibati. O'pka tuberkulemasida xirurgik davolashni o'rni. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari. Tekshirishning zamonaviy usullari, jarroxlilik davolash usuliga ko'rsatmalar

6- mavzu. O'pka tuberkulezi destruktiv shakllari. O'pkaning kavernali, fibroz-kavernali va sirrotik tuberkulezi. O'pkadagi destruktiv jarayonlar patogenez va patomorfologiyasi. O'pkadagi xalqasimon soyalarni rentgenologik sindromi. Destruktiv shakllarning klinik variantlari. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari. O'pka tuberkulezi destruktiv shakllaridan keyingi qoldiq o'zgarishlar. Posttuberkulez pnevmoskleroz. Jarroxlilik davolash usuliga ko'rsatmalar. O'zbekistonda tuberkulezga qarshi kurashishni tashkil etish.

7- mavzu. O'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozi, klinik kechishi, tashxis, qiyosiy tashxis, profilaktikasi. Suyak-bo'g'im, siydik chiqaruv va jinsiy a'zolar, periferik limfa tugunlari tuberkulyozi. Ularni kelib chiqish sabablari, o'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozi shakllaridan keyingi qoldiq o'zgarishlari va asoratlari. Tuberkulyoz plevriti, tuberkulyoz meningitis. Plevra bo'shlig'ida suyuqlik yig'ilish mexanizmi. Plevritlar patogenezi. Tuberkulez plevriti. Turli genezli va turli joylashishdagi plevritlarning klinik xususiyatlari va laborator o'zgarishlar

8- mavzu. Tuberkulez profilaktikasi usullari – sanitar, maxsus, ximioprofilaktika va ijtimoiy profilaktika. Tuberkulez infeksiya o'choqlarning toifalari. O'chog'larning toifalar buyicha epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. Turli yoshdagi guruxlarda tuberkulezni erta aniqlash usullari. Poliklinikada tuberkulezga qarshi ishlar, VTEKda ishlar, SESdatuberkulezga qarshi ishlar.

Tuberkulez bemorlarni zamonaviy dasturlar bo'yicha davolashning asosiy tamoyillari. Tuberkulezga qarshi kurashishda UDMning o'rni.

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi

### 3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

#### 7-semestr:

<https://www.lshtm.ac.uk/media/70856>

1- mavzu. Tuberkulez klinikasida infeksiyon nazorat. Yangi usul va vositalarni qo'llagan xolda atrof muxit ob'ektlarini zararsizlantirishdir. Tuberkulez manbai va yuqish yo'llari. Tuberkulez mikrobiologiyasi, tuberkulez qo'zg'atuvchisi, mikobakteriya turlari. Tuberkulez mikobakteriyasini turg'un, multirezistent shakllarining epidemiologik va klinik ahamiyati. Tuberkulez diagnostikasi: ob'ektiv va klinikolaborator tekshirish usullari. Tuberkulin sinamalari, funksional tekshirish usullari, rentgenodiagnostika va bronxoskopiya. Tuberkulezga tabiiy qarshilik va tuberkulezga qarshi immunitet, ularning mexanizmi, tuberkulezga qarshi immunitet a'zolari va tizimlari. PChZD, tuberkulez patogenezida immunitet fenomenlarining ahamiyati.

2- mavzu Tuberkulezning umumiy tekshirish usullari. Rentgenologik va laborator tekshirish, materiallarni tuberkulyoz tayoqchasiga oddiy mikroskopiya, GENE XPERT, qattiq oziq muhit Livenshteyn-Iensen, suyuq oziq muhit BACTEC M-JIGIT 960 ga usullariga tekshirish.

3- mavzu. Tuberkulezning klinik tasnifi. O'pka tuberkulezi bemorlar bilan studentlarni ko'rigi va kasallik tarixini to'ldirish. O'zR qabul qilgan klinik tasnif, MKB 10, JSST ko'rsatmasiga asosan tashxisni asoslash. O'zbekistonda qo'llaniluvchi tuberkulez tasnifiga mos klinik tashxisni qo'yish. O'pka tuberkulezi bilan kasallangan bemorlar kuratsiyasi. Tuberkulez bilan kasallangan bemor kasallik tarixi sxemasi. Tuberkulez bilan kasallangan bemor tashxisini rasmiylashtirish va qo'yish tartibi. . Birlamchi tuberkulez. Birlamchi tuberkulez klinik shakllari –bolalar va o'smirlarda tuberkulezdan zaxarlanish, birlamchi tuberkulez kompleksi, ko'krak ichi limfa tugunlari tuberkulezining klinik simptomatologiyasi va tekshirish usullari, kechishi, asorati va oqibatlari. Birlamchi tuberkulez (BT) klinik shakllarining erta aniqlash. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari. Birlamchi tuberkulez o'tkazgandan keyingi qoldiq o'zgarishlar.

4- mavzu. O'pkaning tarqoq tuberkulezi. Tarqoq tuberkulezning klinik shakllari – miliar tuberkulez, o'tkir osti tarqoq tuberkulez, surunkali tarqoq tuberkulezining klinik simptomatologiyasi va tekshirish usullari, kechishi, asorati va oqibatlari. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari.

5-mavzu. O'pkaning o'choqli tuberkulyozi. O'pkaning yallig'langan tuberkulyozi. O'pka tuberkulomasi. O'pkaning yumshoq o'choqli va fibroz o'choqli tuberkulezining klinik simptomatologiyasi va tekshirish usullari, kechishi, asorati va oqibatlari. O'pkaning yallig'langan tuberkulezi va tuberkulemaning klinik simptomatologiyasi va tekshirish usullari, kechishi, asorati va oqibatlari. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari. Tekshirishning zamonaviy usullari, jarroxlilik davolash usuliga ko'rsatmalar.

#### 8-semestr:

<https://www.lshtm.ac.uk/media/70856>

6- mavzu. Tuberkulezning destruktiv shakllari – kavernali, fibroz-kavernali va sirrotik tuberkulezning klinik simptomatologiyasi va tekshirish usullari, kechishi, asorati va oqibatlari. Qiyosiy tashxislash usullari, qayd etish shakllari. O'pka tuberkulezi destruktiv shakllaridan keyingi qoldiq o'zgarishlar. Posttuberkulez pnevmoskleroz. Jarroxlilik davolash usuliga ko'rsatmalar.

7- mavzu. O'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozi, klinik kechishi, tashxis, qiyosiy tashxis, profilaktikasi. Suyak-bo'g'im, siydik chiqaruv va jinsiy a'zolar, periferik limfa tugunlari tuberkulyozi. Ularni kelib chiqish sabablari, o'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozi shakllaridan keyingi qoldiq o'zgarishlari va asoratlari.

8- mavzu. Tuberkulyoz plevriti, tuberkulyoz meningitis. Plevra bo'shlig'ida suyuqlik yig'ilish mexanizmi. Plevritlar patogenezini. Tuberkulez plevriti. Turli genezli va turli joylashishdagi plevritlarning klinik xususiyatlari va laborator o'zgarishlar. Turli etiologiyali plevritlar qiyosiy tashxisi. Turli genezli plevritlarni tekshirishda instrumental tekshirishning ahamiyati va algoritmi dasturi. Terapevtik, xirurgik davolash usullari. Tuberkulezning shoshilinch tibbiy yordam talab qiluvchi asoratlari: spontan pnevmotoraks, qon tuflash va o'pkadan qon ketishi, nafas yetishmovchiligi. Aniqlash usullari, klinik kechishi, instrumental tekshirishlarning differensial diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam terapevtik va xirurgik choralar tamoyillari.

9- mavzu. Tuberkulezni davolash usullari. BSST ko'rsatmasiga asosan davo natijasi monitoringi va baholash. Tuberkulezning dorilarga turg'un turi va davolash taktikasi. (MLU-TB). Ximioterapiyaning asosiy tamoyillari –JSST ko'rsatmalariga asosan nazoratli antibakterial terapiyani o'tkazish. UDM vazifalariga tuberkulezga oid shikoyatlari mavjud bemorlarni o'z vaqtida aniqlash; quvvatlovchi fazada nazoratli davoni ta'minlash va profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish.

10- mavzu. Tuberkulezga qarshi muassasalar. Tuberkulezga qarshi dispanser tarkibi, vazifalari va kontingentlarini guruxlash. Tuberkulez bilan kasallangan bemorlarni dispanser nazoratiga olish, guruxdan guruxga o'tkazish va nazoratdan chiqarish mezonlari. Tuberkulez infeksiya o'choqlarning toifalari. O'chog'larning toifalar buyicha epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. Tuberkulez profilaktikasi usullari – sanitar, maxsus, ximioprofilaktika va ijtimoiy profilaktika. Turli yoshdagi guruxlarda tuberkulezni erta aniqlash usullari. Tuberkulezga qarshi kurashishda UDMning o'rni.

### **3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### **3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:**

Modul davomida talabalar ftiziatriya modulida davolash rejasini tuza olishi, reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkaza olishi, dispanserizatsiya va profilaktika guruhlariga ajratish, profilaktik emlash rejasini tuzish, og'ir bemorlarni saralash va shoshilinch yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

7-8 semestr:

1. 2 TB bilan Mantu sinamasini o'tkazish;
2. BSJ vaksinatsiyasi va revaksinatsiyasi;
3. Ko'krak qafasi rentgenogrammasini baholash;
4. Tuberkulyoz infeksiyasi o'chog'ini tekshirish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yhati:

UK 11. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga taykompeyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgarlik;

1 UK- umumiy kompetensiya

2 UKK – umumiy kasbiy kompetensiya

UKK

4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

### **Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Talabalarining "Ftiziatriya" moduli bo'yicha klinik amaliyoti ta'lim jarayonining 50%ini tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar tuberkulyozga qarshi shifoxona va dispanserlarning kattalar va bolalar bo'limlarida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi.

Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob-anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalarini bilan talabalar tanishtiriladi. Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob-anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni kadamma-kadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali

namoyish etiladi, algoritm asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Avval ko'nikmaning barcha bosqichlarini alohida, keyin umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam algoritmi, videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish texnikasi, baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob-anjomlar bo'lishi lozim va kerakli sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichni pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalarining xatolarini to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini o'qituvchi va boshqa talabalarga tushuntirib beradi, so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik

shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, kasallik tarixi va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda, balki jamoa bo'lib ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak, shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirilgan deb xisoblanadi. To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlar va kasallik tarixi yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

#### **4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

##### **4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:**

###### **7- semestr:**

1. O'pkaning funksional morfologiyasi. Zamonaviy sharoitda o'pka tuberkulyozining morfologik kurinishi.
2. Tuberkulyoz etiologiyasi. Tuberkulyoz mikobakteriyasini dorilarga chidamlilik turi.
3. Birlamchi tuberkulyoz klinik shakllarni qiyosiy tashhislashning asosiy usullari.
4. Ikkilamchi tuberkulyoz klinik shakllarni qiyosiy tashhislashning asosiy usullari.
5. Tuberkulyoz patogenezi. Tuberkulyoz yallig'lanishining immunologik va genetik aspektlari.

###### **8- semestr:**

6. O'pkadan tashkari a'zolar tuberkulyozining rentgenologik va nur diagnostikasi.
7. O'pka tuberkulyozi asoratlari. Tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarga nafas etishmovchiligi.
8. O'zbekiston Respublikasida tuberkulyozga qarshi kurashishning milliy dasturi
9. Tuberkulyozning o'pkaning nospetsefik kasalliklar bilan birga kechishi.
10. Tuberkulyoz va OIV infeksiyasi.

##### **4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

Ftiziatriya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

### **4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Ftiziatriya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan patsientlar (bemorlar) kuratsiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan ishtirok etish;
- aholi orasida soglom turmush tarzini targib qilish, bolalarni yoshi va sogligiga bogliq oqatlantirish tamoyillari haqida suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalarni qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k

### **5. Asosiy va qўshimcha ўquv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

#### **5.1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Парпиева Н.Н., Тилляшайхов М.Н., Гиллер Д.Б., Ходжаева М.И., Мухамедов К.С., Белоцерковец В.Г., Массавилов Ш.Ш. Фтизиатрия. Дарслик. Тошкент. Фан. 2019 й.
2. М.И. Перелмен, И.В. Богаделникова. Фтизиатрия. Учебник. 2013 г.
3. Убайдуллаев А.М. Сил касалиги. Қўлланма. Тошкент. Фан. 2009 й. (электрон).

#### **5.2. Қўшимча адабиётлар:**

1. Цогт Г., Чубаков Т., Кадыров А. Фтизиатрия. Учебник. Бишкек. KIRL and Print. 2017 г.
2. Ракишева А.С., Цогт Г. Фтизиатрия. Учебник. Алматы. USAID. 2014 г.
3. Перелман М. И., Богаделникова И.В. “Фтизиатрия”. Учебник. Москва. Геотар-Медиа. 2013 г.
4. Мишин В.Ю., Григорев Ю.Г. Учебник. Москва. Геотар-Медиа. 2007 г.
5. Бородулин Б.Е. “Фтизиатрия”. Учебник. Москва. Академия. 2006 г.
6. Визел А.А., Гурелева М.Е. “Туберкулез”. Учебное пособие. Москва. Медицина. 2000 г.
7. Ибрагимов М.А., Турсунов В.И., Содиков А.С. “Туберкулез”. Дарслик. Тошкент. Абу Али ибн Сино. 1999 й.
8. Греимер М.С., Фейгин М.И. “Раннее выявление туберкулёза легких”. Учебное пособие. Москва. Медицина. 1996 г.
9. Ганиев К.Г. “Туберкулез касаллиги”. Дарслик. Тошкент. Абу Али ибн Сино. 1995 й.
10. Тилляшайхов М.Н., Н.Н.Парпиева “Туберкуллезга қарши муасалаларда инфекцион назорат бўйича қўлланма”. Тошкент. Фан. 2013 й.
11. Francis J. Curry. Tuberculosis Infection Control. A Practical Manual for Preventing TB. National Tuberculosis Center. Geneva. WHO. 2006 y. 24
12. Enarson D.A., Rider G.L., Arnadottir T., Tribuk A. “Организация борьбы с туберкулёзом”. Женева. ВОЗ. 2003 г.

### **5.3. Интернет сайтлари:**

- 1. [www.tma.uz](http://www.tma.uz)**
- 2. [www.medlinecs.ru](http://www.medlinecs.ru)**
- 3. [www.medbook.ru](http://www.medbook.ru)**
- 4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)**